

INNOVASION BARQARORLIKNI OSHIRISHDA IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI.

Shoyev Davronbek Axmadjonovich

Farg'ona politexnika instituti "Menejment" kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14881094>

Annotasiya: Ushbu maqolada samarali boshqarish tizimida ijtimoiy munosabatlarning o'rni, samarali faoliyat ko'rsatishi uchun ijtimoiy rivojlanishning ahamiyati va ishchi-xodimlarning faolligini oshirishda ijtimoiy munosabatlarning dolzarbligi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: menejment, ijtimoiy munosabatlar, samarali faoliyat, jamoaviy ruh, korporativ madaniyat, motivasiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль социальных отношений в эффективном управлении предприятиями, значение социального развития для эффективной работы предприятия, а также актуальность социальных отношений в повышении активности сотрудников.

Ключевые слова: менеджмент, социальные отношения, эффективная деятельность, командный дух, корпоративная культура, мотивация.

Abstract: This article examines the role of social relations in the effective management of enterprises, the importance of social development for the effective operation of an enterprise, as well as the relevance of social relations in increasing the activity of employees.

Key words: management, social relations, effective performance, team spirit, corporate culture, motivation.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishda ijtimoiy munosabatlarni samarali yo'lga qo'yish juda dolzarb masalalardan hisoblanadi, chunki bu omil korxonalarning samarali faoliyat yuritishi va barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning bir qancha sabablari va asoslari bor: birinchidan, xodimlar o'rtasida sog'lom ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, ular o'zlarini jamoaning bir bo'lagi sifatida his qilishadi, bu esa ularning ishga bo'lgan sadoqatini oshirishga olib keladi. Xodimlarning bir birlari bilan birgalikda faoliyat olib borishlari ish unumdorligini oshishiga xizmat qiladi;

Ikkinchidan, xodimlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarning samarali yo'lga qo'yilganligi stress va taranglik darajasini kamaytiradi, jamoada bir birini qo'llab-quvvatlash va o'zaro ishonch mexanizmi shakllanadi, natijada korxonada bir birini hurmat qilish munosabatlari, stressning kamayishi va ijobiy ish muhiti ta'minlanadi;

Uchinchidan, korxonada ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish orqali xodimlar o'rtasida bir-birlari bilan sog'lom raqobat yuzaga keladi, bu esa ularning o'z ustida ishlashlariga, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashlariga hamda ular orasida sog'lom raqobat va hamjihatlikni shakllantiradi. Eng asosiysi, xodimlarning yagona maqsad sari birlashishiga va korxonada mustahkam jamoaviy ruhiyatni mustahkamlaydi, korxonaning o'ziga xos qadriyatlari va tamoyillarini shakllanishi natijasida korporativ madaniyatni rivojlantiradi.

Materiallarni olish texnologiyasi va tadqiqot usuli.

Korxonada ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish uchun bir qancha muhim omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Ishchi-xodimlar o'rtasida muloqot va hamkorlikni mustahkamlash: Jamoada sog'lom muloqotni rivojlantirish, xodimlarning bir-birini qo'llab-quvvatlashi va jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantirish ijtimoiy munosabatlarni yaxshilaydi.

2. Rahbariyatning ochiqligi va xodimlarga e'tibor qaratishi: Xodimlarning fikr-mulohazalarini tinglash, ochiq eshik siyosatini yuritish va xodimlarning muammolariga e'tibor qaratish ularning kompaniyaga nisbatan sadoqatini oshiradi.

3. Motivatsiya va rag'batlantirish tizimi: Yaxshi ishni rag'batlantirish va mukofotlash tizimi xodimlarni faol ishlashga undaydi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

4. Sog'lom ish muhiti va mehnat sharoitlarini yaxshilash: Xodimlarning qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarida ishlashi ularning ish faoliyatiga va o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Korxona ichidagi o'quv va rivojlanish dasturlari: Xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun o'quv kurslari tashkil qilish ham ularning rivojlanishiga, ham bir-birlari bilan bog'lanishlariga yordam beradi.

6. Jamoa tadbirlari va ijtimoiy loyihalar: Jamoa va ijtimoiy tadbirlar (sport o'yinlari, korxona kunlari va boshqalar) o'tkazish xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytiradi va o'zaro hamjihatlikni rivojlantiradi. Bunday omillar xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga va korxonada ijobiy ish muhiti yaratishga yordam beradi.

Eksperimental natijalar va ularning muhokamasi.

Ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishning samaradorligi nafaqat xodimlarning motivatsiyasini va qoniqish darajasini oshiradi, balki korxonaning umumiy faoliyat samaradorligini oshiradi. Bu esa korxonaga uzoq muddatli barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Sog'lom ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil qilish xodimlarning o'z vazifalariga nisbatan mas'uliyatini oshiradi. Natijada korxonaning umumiy ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish darajasi ortadi. Shuningdek, jamoada ijobiy munosabatlar tufayli o'zaro yordam berishga va tajriba almashishga intilishadi. Bu esa tajriba va malaka almashuvini kuchaytiradi hamda murakkab muammolarni tezkor hal qilish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, jamoada ish muhitini yaxshilanishiga, kadrlarning barqarorligi oshirishga, innovatsiyalarni qo'llab quvvatlashga, qaror qabul qilish jarayonining yaxshilanishiga shuningdek, korxonalarda insoniy omillarni kuchaytiradi, jamoa jipsligi ta'minlanadi va ish jarayonlarini samarali boshqarishga zamin yaratiladi. Bu korxonalarning umumiy rivojlanishiga va muvaffaqiyatiga xizmat qiladi. Korxonalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish ko'plab ijobiy natijalarni beradi va tashkilotning samaradorligi, barqarorligi hamda umumiy muvaffaqiyati uchun kuchli asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента. Пер. с англ. – М.: Контроллинг, 1991. –104 с.
2. Хорин А.Н. Стратегический анализ. Учебное пособие. А.Н. Хорин, В.Э. Керимов. – М.: Эксмо, 2006. – 288 с.
3. Shoyev D.A. Boshqarish sifatining iqtisodiy mohiyati va uni rivojlantirish masalalari. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ilmiy jurnali. 05.12.2023y. 11-12 son, 342-345 betlar. 71-94 xalqaro daraja, ISSN: 2992-8982
4. Shoyev D.A. Xodimlarning ishchanlik faoliyatini oshirish omillari - "performance-based training". "Soliq va hayot" electron ilmiy ommabop jurnal. 2023y.02.12. 2-tom, 282-286 bet. ISSN 2181-2292.